O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

5. Sirlibekov K. EVENT TOURISM CENTERS OF SPAIN //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 161-167.
6. Сирлибеков Х. Ш. ФАКТОРЫ И ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА (СПА-ТУРИЗМА) В СОВРЕМЕННОЙ РОССИИ //Казанский вестник молодых учёных. – 2022. – Т. 6. – №. 3. – С. 92-97.
7. Sirlibekov K. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF CULTURAL TOURISM IN UZBEKISTAN //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 123-131.
8. Sirlibekov K. EVENT TOURISM CENTERS OF SPAIN //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 161-167.

RAQAMLI BIZNES INNOVATSION DASTURIY TARMOQ PLATFORMASI MODELINI ISHLAB CHIQISH

Matyakubov A.S.,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Tadjiev R.N.
O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti
ruhillo@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli texnologiyalarni joriy etishda bank sektori va to’lov xizmatlari o’rtasida o’zaro aloqani o’rnatish hamda raqamli iqtisodiyotining amaliy ahamiyati va jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, taraqqiyot, tizim, internet iqtisodiyoti, CRM, platforma, elektron raqamli imzo.

Bugungi kunda banklarni transformatsiya qilish, birinchidan, raqamli banklarni tashkil qilishni talab etsa, ikkinchidan, amaldagi bank bo‘limlari ish faoliyatining o‘zgarishiga va bank xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Raqamli banklarda bank xizmatlari maksimal darajada avtomatlashtiriladi va bank mijozlari uchun (o‘z o‘zini) interaktiv boshqaruv tizimlari yaratiladi. Zamon talabi ham raqamli iqtisodiyotning taraqqiy etishi natijasida banklarda filiallar sonini oshirish yo‘li bilan emas, balki masofaviy bank xizmatlarini, jumladan, omni-kanal tartibida rivojlantirish orqali ham ko‘p sonli mijozlarga xizmat ko‘rsatishni talab etmoqda. Davr esa moliyaviy mablag‘lardan foydalanish imkoniyatlarida identifikatsiya qilishning ishonchli usullari, shaffoflikni, tranzaksiyalarni tezkor qayta ishlash, va iqtisodiy faoliyat jarayonini yuqori darajaga ko‘tarishga imkon beradigan yanada sifatli-sodda xizmatlarni taqdim etilishini talab qilmoqda.

Axborot texnologiyalar bozorida salmoqli yutuqlarga erishish hamda bank mijozlari bazasiga yanada zamonaviy shakldagi texnologiyalarni joriy etish maqsadida ularga yangidan yangi xizmatlarni taklif etish maqsad qilingan.

Mijozlar an'anaviy bank protseduralariga innovatsion raqamli muqobil usullardan tobora ko'proq foydalanishni afzal ko’rishmoqda.

Omni-kanalli raqamli bank platformasida barcha qurilmalarga muammosiz ulanishni taqdim etadi. Mijozlar talabidan kelib chiqib hozirda ko'plab banklar ushbu omni-kanal ko’rinishidagi raqamli bank platformasiga o’tishga xarakat qilmoqdalar.

Banklar bilan hamkorlikda yirik korxonalar va tadbirkorlik sub’ektlari uchun barcha bank va bankdan tashqari buxgalteriya xizmatlarni avtomatlashtirilgan, byurokratiyani kamaytiradigan va mijozlarga qator qulayliklarga ega bo‘lgan omni-kanal ko’rinishidagi platforma barcha moliyaviy operatsiyalarni bevosita bir oyna tizimida amalga oshirish imkonini beradigan platforma yaratildi.

Omni-kanal raqamli bank banklar va boshqa moliya institutlariga eng zamonaviy kross-platforma iste'molchilar tajribasini taqdim etishda yordam berish uchun yaratilgan. Bu banklarda mijozlar kutish vaqtlarini tejashga va bank bilan mijozlarni individual oson ishlashlariga imkoniyat yaratadi.

Platforma banklarga o'z mijozlariga soddalashtirilgan va moslashtirilgan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kanallarini taqdim etish imkonini beruvchi birlashtirilgan, yagona bir oyna yechimni taqdim etadi.

Barcha kanallar bo'yicha real vaqt rejimida ma'lumotlarni sinxronlashtirish omnikanal bank tizimlarining xususiyati hisoblanadi. Foydalanuvchilar, masalan, bir xil ma'lumotni qayta kiritmasdan, ro'yxatdan o'tish jarayonini bir kanalda boshlashi va boshqa kanalda yakunlashlari mumkin.

Platforma quyidagi imkoniyatlarga ega:

Platformada uchun ustuvor vazifalardan biri moliyaviy operatsiyalar xavfsizligi hisoblanadi. Platforma ma’lumotlarni himoya qilishning zamonaviy standartlariga to‘liq mos keladi va barcha to‘lov tranzaksiyalarining ishonchli bajarilishini ta’minlaydi.

Sifatli masofaviy bank tizimi hisobiga iste’mol talabining o‘zgarishiga javob berish muddati tezlashadi. Platforma murakkab raqamli bank tizimlarini soddalashtirish uchun ham foydali. Banklarda yuqori sifatli raqamli bank platformasidan foydalangan holda raqamli xizmatlarini tezroq taqdim etishlari mumkin. Bu banlar va potensial mijozlar orasidagi baryerni bartaraf etishga yordam beradi.

Korporativ axborot xavfsizligi: Platformani joriy etishda axborot xavfsizligi muammolarini hal qilish uchun murakkab algoritmlarga asoslangan SIEM va DLP tizimlari asosida apparat-dasturiy himoya tizimi joriy qilingan.

Platforma xavfsizligini ta’minlashning yagona mexanizmini qurish quyidagi algoritmga asoslanadi:

- mavjud tarmoq, infratuzilma elementlari, dasturiy ta’minotning auditini o‘tkazish, to‘siqlarni aniqlash va modernizatsiya qilish yo‘nalishlarini aniqlash;
- Axborot tizimini ta’minlashning asosiy nuqtalarini belgilovchi xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlash - olinadigan tashuvchilar (USB nositel) bilan ishlash qoidalaridan tortib, professional faoliyatda Internet va shaxsiy elektron pochta qutilaridan foydalanish tamoyillarigacha belgilangan;
- himoyalangan ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish imkoniyatini istisno qiluvchi ikki faktorli mexanizmdan foydalangan holda zarur bo‘lgan darajada foydalanuvchini autentifikatsiya qilish tizimi;

- tabaqalashtirilgan kirish modellaridan birini amalga oshirish, bunda foydalanuvchining darajasiga qarab, unga fayllar bilan kerakli operatsiyalarni bajarish imkoniyati beriladi;
- zaifliklarni aniqlashda skanerlardan foydalangan holda Platforma holatini monitoringi tizimini yaratish, ularga standart reaksiya qoidalarini ishlab chiqish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish maqsadida hodisalar ma'lumotlar bazasini yaratish;
- foydalanuvchilar ruxsat etilmagan ulanishlardan masofadan turib muloqot qiladigan aloqa kanallarini himoya qilishni yaratish, xavfsiz protokollardan, VPN tunnellaridan foydalanish;
- ma'lumotlar bazalari va trafik xavfsizligini ta'minlovchi kriptografik axborotni himoya qilish vositalaridan foydalanish;

Xulosa qilib aytilganda, "*raqamli*" atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni bildiradi. Ananaviy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurslar xisoblansa, raqamli iqtisodiyotda esa qayta ishlab chiqiladigan hamda uzatiladigan ma'lumotlar xisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda bank sektori va to'lov xizmatlari o'rtasida o'zaro aloqani o'rnatish, iqtisodiyotning turli sohalarida tegishli ma'lumotlarni har kunlik monitoring qilish va tahlil qilish, xalqaro tajribani o'rganish, elektron tijorat sub'ektlarining milliy reestrini joriy etish, shuningdek ular bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish bugungi kunnig muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hubballi N., Swarnkar M., Conti M. BitProb: Probabilistic Bit Signatures for Accurate Application Identification. IEEE Transactions on Network and Service Management, vol. 17, no. 3, 2020, pp. 1730
2. Poullis, C., & Bellekens, X. (2018). Deep Packet Inspection in Software-Defined Networks: Threats, Challenges, and Opportunities. IEEE Access, 6, 38221-38235. Link
3. Matyakubov A.S., Tadjiyev R.N. "Method of intercepting outgoing and incoming packets in computer networks" Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (2021 йил 15-17 Ноябрь). Фарғона давлат университети, 2021. 16 б.
4. Matyakubov A.S., Tadjiev R.N., Esonmurodov S.Q. The role of information technology in modern medicine. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 3 No. 7 (2022): wos https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2199/2093
5. Matyakubov A, Tadjiyev R. Komilov R., Kiruvchi va chiquvchi tarmoq trafigini deep packet inspection (dpi) yordamida kiruvchi va chiquvchi trafiklarni teran tahlil qilish. Urganch, 29-30 aprel 2022y xalqaro ilmiy-amaliy anjumani Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch Filiali 2022, 89-91 b.

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA MOBIL ILOVA